

X. ISTE'MOL BOZORI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2025- yil 1- yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **5 176** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **83** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **5 093** tani tashkil qildi.

Chakana savdo korxonalar soni (2024- yilning yanvar–dekabr oylari)

Shahar va tumanlar nomi	2024- yil	2023- yil
Xorazm viloyati	5 176	6 318
Urganch sh.	943	1 052
Xiva sh.	344	418
Bog'ot	462	652
Gurlan	293	418
Qo'shko'pir	390	527
Urganch	554	645
Hazorasp	410	499
Tuproqqal'a	118	157
Xonqa	389	422
Xiva	319	363
Shovot	314	428
Yangiariq	358	340
Yangibozor	282	397

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

**Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik
biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining
hajmi va o‘shish sur‘atlari**

Shahar va tumanlar nomi	Jami (mlrd so‘m)*	2023 yilga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mlrd so‘m)*	2023 yilga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, (mlrd so‘m)*	2023 yilga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	16 083,6	109,9	512,5	66,2	15 571,0	112,3
Urganch sh.	4 443,7	113,3	283,7	59,0	4 160,1	120,9
Xiva sh.	698,6	107,5	22,7	83,6	675,9	108,5
Bog‘ot	886,2	108,4	18,1	120,2	868,1	108,2
Gurlan	1 191,8	108,7	5,3	93,7	1 186,5	108,8
Qo‘shko‘pir	804,6	112,7	3,4	82,6	801,2	112,9
Urganch	1 957,3	107,7	17,0	53,6	1 940,3	108,6
Hazorasp	1 560,6	107,2	44,1	78,8	1 516,6	108,4
Tuproqqal‘a	351,6	109,5	0,5	127,3	351,1	109,5
Xonqa	977,8	107,5	5,3	20,3	972,5	110,1
Xiva	542,0	107,6	28,8	97,6	513,2	108,2
Shovot	1 058,2	112,2	25,0	83,5	1 033,2	113,1
Yangiariq	667,5	107,6	2,7	102,8	664,8	107,6
Yangibozor	437,0	111,7	22,1	173,3	414,8	109,6

**) Ulgurji va chakana savdo hamda ovqatlanishning viloyat hajmlariga yashirin iqtisodiyot hajmlari qo‘shilgan*

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **16 083,6** mlrd so‘mni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan **109,9** % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **512,5** mlrd so‘m o‘shish sur‘ati (**66,2** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **12 568,1** mlrd so‘mni (o‘shish sur‘ati **111,7** %), uyushmagan savdo tovar aylanmasi **3 002,9** mlrd so‘mni o‘shish sur‘ati **115,1** %) tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-dekabr oyida 2023- yilga nisbatan viloyatning Urganch shahrida (**113,3**%), Qo‘shko‘pir tumanida (**112,7** %) hamda Shovot tumanida (**112,2** %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etildi.


**Aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi
hajmi va o'sish sur'atlari**

Shahar va tumanlar nomi	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
Xorazm viloyati	7 985,9	107,8
Urganch sh.	28 780,7	111,2
Xiva sh.	7 021,0	105,8
Bog'ot	4 984,3	106,3
Gurlan	7 519,4	106,9
Qo'shko'pir	4 377,8	110,7
Urganch	9 065,8	105,4
Hazorasp	7 503,1	105,2
Tuproqqal'a	5 860,2	106,9
Xonqa	4 884,3	105,6
Xiva	3 461,0	105,4
Shovot	5 814,1	110,2
Yangiariq	5 378,8	105,8
Yangibozor	4 688,4	109,9

2024- yilning yanvar-dekabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **7 985,9** ming so'mni (2023- yilga nisbatan **107,8** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (28 780,7 ming so'm), Gurlan (7 519,4 ming so'm) va Urganch (7 503,1 ming so'm) va tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasining ulushi




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida 28,5 % bilan 4 443,7 mlrd so‘mni tashkil etdi. Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa Tuproqqal’a tumanida 2,3 % bilan 351,6 mlrd so‘mni tashkil etdi. 2023 - yilga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o‘shish kuzatildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasining hajmi (mlrd so‘m)






Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-dekabr)




Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2024- yil yanvar-dekabr oylari)



2024- yilning yanvar-dekabr oyida chakana savdoning o'sish sur'ati 109.9 % ni tashkil qildi. Oxirgi bir yillikda chakana savdoda 2024- yilning dekabr oyida kuzatilib o'sish sur'ati 109.9 % ga yetdi.

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlar subyektlarining hududlar kesimida ulushi, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (99,9 %), Yangiariq, Gurlan va Qo'shko'pir (99,6 %) tumanlari mos ravishda yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (6,4 %), Xiva tumani (5,3 %), Yangibozor tumani (5,1 %), Xiva shahri (3,2 %) va Hazorasp tumanida (2,8 %) kuzatildi.






Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi


2024- yilning yanvar-dekabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **5 751,8** mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **87,7** foizni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **4 924,6** mlrd so'm (o'sish sur'ati – **146,6** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **827,2** mlrd so'mni (o'sish sur'ati – **23,9** %) tashkil qildi.



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (mlrd. so'm)



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda





Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Shahar va tumanlar nomi	Hajm, mlrd so‘m	Ulushi, foizda
Xorazm viloyati	5 751,8	100,0
Urganch sh.	5 008,8	87,1
Xiva sh.	60,9	1,1
Bog‘ot	105,0	1,8
Gurlan	35,5	0,6
Qo‘shko‘pir	17,8	0,3
Urganch	66,8	1,2
Hazorasp	204,2	3,5
Tuproqqal‘a	19,2	0,3
Xonqa	109,3	1,9
Xiva	8,5	0,1
Shovot	41,6	0,7
Yangiariq	52,7	0,9
Yangibozor	21,6	0,4

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**5 008,8** mlrd so‘m), Hazorasp (**204,2** mlrd so‘m) va Xonqa (**109,3** mlrd so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonolari savdo aylanmasi

2025- yil 1- yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonolari soni **1 315** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni **2** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 313** tani tashkil qildi

2024- yilning yanvar-dekabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **10 523,9** mlrd so‘mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan **10,9** % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **93,8** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Shahar va tumanlar nomi	Jami mlrd so‘m	2023- yilga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd so‘m	2023- yilga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd so‘m	2023- yilga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	10 523,9	110,9	651,4	2,4 m.	9 872,5	107,1
Urganch sh.	211,4	113,2	10,3	83,0	201,1	115,4
Xiva sh.	29,3	114,7	-	-	29,3	114,7
Bog‘ot	34,4	110,5	-	-	34,4	110,5
Gurlan	7,6	121,4	-	-	7,6	121,4
Qo‘shko‘pir	7,3	112,0	-	-	7,3	112,0
Urganch	79,2	128,4	20,4	-	58,7	95,3
Hazorasp	17,5	112,7	-	-	17,5	112,7
Tuproqqal‘a	5,8	107,9	-	-	5,8	107,9
Xonqa	35,3	112,4	-	-	35,3	112,4
Xiva	9,4	110,5	-	-	9,4	110,5
Shovot	35,6	113,3	-	-	35,6	113,3
Yangiariq	18,6	112,0	-	-	18,6	112,0
Yangibozor	16,1	111,0	-	-	16,1	111,0

Ulgurji savdo aylanmasi

2025- yil 1- yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **1 991** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **38** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 953** tani tashkil qildi

Shahar va tumanlar nomi	Jami mlrd so'm	2023- yilga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd so'm	2023- yilga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd so'm	2023- yilga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	9 033,0	111,0	385,9	40,8	8 647,1	120,2
Urganch sh.	4 699,9	120,9	47,8	26,5	4 652,1	125,5
Xiva sh.	223,4	104,8	9,7	55,3	213,7	109,2
Bog'ot	105,7	77,2	1,2	3,0	104,4	109,6
Gurlan	152,7	71,4	9,0	9,3	143,6	123,7
Qo'shko'pir	84,7	109,3	0,6	6,6 m.	84,1	108,7
Urganch	1 462,7	99,8	190,6	50,4	1 272,1	116,9
Hazorasp	102,2	87,9	8,0	51,5	94,1	93,6
Tuproqqal'a	93,4	106,8	0,2	3,1 m.	93,2	106,6
Xonqa	350,4	97,5	3,1	6,6	347,3	111,2
Xiva	502,5	132,6	82,7	2,3 m.	419,8	122,2
Shovot	139,1	111,6	0,6	2,8 m.	138,4	111,3
Yangiariq	295,0	90,9	0,8	1,4	294,2	110,5
Yangibozor	150,9	110,6	2,7	121,4	148,1	110,4

Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-dekabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 9 033,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 11,0 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar va Qo'shko'pir tumani (6,6 martaga), Tuproqqal'a tumani (3,1 martaga) kuzatildi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Chakana savdo - savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya'ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste'mol sohasiga o'tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

Chakana tovar aylanmasi - tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat'i nazar, aholiga iste'mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochkalari, kredit kartochkalari, banklarning hisob heklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

Umumiy ovqatlanish - yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

Umumovqatlanish aylanmasi - joyida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari - chakana savdo korxonalarini balansida turgan va kelgusida sotish uchun mo'ljallangan tovarlar qoldig'i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilmasi - umumiy savdoda nisbiy ko'rsatkich - jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og'irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o'rtasidagi nisbat, ya'ni tovar aylanmasi tarkibi.

Ulgurji savdo - tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

Iste'mol tovarlari - yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar - ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi - tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari - tovar muomalasi doirasida bo'lgan tovarlar yoki ulgurji korxonalar balansida turgan va kelgusida sotishga mo'ljallangan tovarlar qoldig'i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilishi - tovar aylanmasi tarkibi, umumiy savdoda nisbiy ko'rsatkich - jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og'irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o'rtasidagi nisbat.